

TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Sharopov Mirjon Nurxonovich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17189183>

Annotatsiya: Maqolada talabalarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning amaldagi holati hamda uni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Hozirgi ta'lim tizimida texnik ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, mavjud sharoit va metodik ta'minot talab darajasida emasligi kuzatiladi. O'quv jarayonida texnik ijodkorlik faoliyati ko'pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib, amaliy mashg'ulotlarda to'liq qo'llanilmayapti. Shu bois, texnik ijodkorlikka tayyorlashni takomillashtirish uchun o'quv dasturlariga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, amaliy tajribaga asoslangan topshiriqlarni ko'paytirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalar motivatsiyasini kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

texnik ijodkorlik, amaldagi holat, takomillashtirish yo'llari, ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar, metodik ta'minot, amaliy mashg'ulot, o'qituvchi malakasi.

Zamonaviy dunyoda taraqqiyot, innovatsiyalar va texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Bu holat, o'z navbatida, yosh avlodni aynan texnik sohalarida mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va ijodiy yondasha oladigan mutaxassis sifatida shakllantirish zaruratini tug'diradi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida talabalarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ammo hozirgi holatga nazar tashlasak, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yetarli bo'lsa-da, ularni samaradorligi va natijadorligi har doim ham kutilgan darajada emas. Talabalarga nazariy bilim berilayotgani aniq, lekin ularni amaliy ijodkorlik faoliyatiga jalb etish, muammoni yechishga qaratilgan mustaqil fikrlashni shakllantirishda hali kamchiliklar mavjud.

Ko'p hollarda ta'lim jarayoni darslik va ma'ruza asosida olib boriladi. Bu esa talabada faqat tayyor bilimlarni yodlashga olib keladi. Texnik ijodkorlik esa — bu yod olish emas, balki fikrlash, sinash, xato qilish va to'g'ri yechimni topish jarayonidir. Shu bois, amaliy mashg'ulotlar, loyiha asosida ta'lim, tanlov va musobaqalarda ishtirok etish kabi faoliyatlar talabalar hayotida ko'proq bo'lishi kerak.

Yana bir muhim masala — bu texnik jihozlar va zamonaviy vositalarning mavjudligi. Ba'zi o'quv muassasalarida zarur bo'lgan asbob-uskunalar, dasturiy platformalar yoki laboratoriya sharoitlari yetarli emas. Bu holat ijodiy fikrlaydigan yoshlarning o'z g'oyalarini real hayotga tadbiq etishini cheklaydi. Shu bois, texnik ijodkorlikni rivojlantirish uchun oliy o'quv yurtlarida zamonaviy texnologik baza yaratish zarur.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning o'zi ham doimiy ravishda yangiliklarni o'rganib, o'z ustida ishlashi lozim. Chunki texnik ijodkorlik faoliyati o'qituvchidan ham ijodiy yondashuv, yangilikka ochiqlik va talabani ilhomlantira olish qobiliyatini talab qiladi. O'qituvchi shunchaki ma'lumot beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, ilhomlantiruvchi bo'lishi kerak.

Yana bir muhim jihat — bu talabani xato qilishdan qo'rqmaslikka o'rgatish. Ijodkorlik xatolardan iborat yo'l. To'g'ri muhitda, erkin fikrlash imkoniyati mavjud bo'lgan joyda texnik ijodiy g'oyalar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham, talaba o'z g'oyasini erkin bayon qila oladigan, xatolari uchun tanqid qilinmaydigan, balki ruhlantiriladigan muhit yaratilishi muhimdir.

Takomillashtirish yo'llari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Loyihaviy ta'lim usullarini keng joriy etish – talabalar real hayotdagi muammolar asosida yechim ishlab chiqish orqali texnik tafakkurini rivojlantiradi;

Texnik tanlovlar, hackathon va startup dasturlarini tizimli tashkil qilish – bu talabalarni faol ishtirokga, musobaqaga va innovatsiyaga undaydi;

STEM va STEAM ta'lim yondashuvlarini faol joriy qilish – bu integratsiyalashgan ta'lim texnik ijodkorlikni chuqurroq shakllantiradi;

Mentorlik va ilmiy rahbarlik tizimini yo'lga qo'yish – tajribali mutaxassislar yordamida talabalarning g'oyalari amaliy loyihalarga aylanishi mumkin;

Innovatsion laboratoriyalar, texnoparklar, startup markazlar bilan hamkorlik – talabalar o'z ijodiy ishlarini real sektorga ulash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, texnik ijodkorlik faoliyati — bu zamonaviy ta'limning ajralmas va eng muhim tarkibiy qismidir. Talabalarni bu yo'nalishga tayyorlash uchun nafaqat dars berish, balki ular bilan birga fikrlash, sinash, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur. Bu yo'lda pedagoglar, ta'lim muassasalari va butun tizim birgalikda harakat qilsa, natijalar uzoq kuttirmaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sharopov M. N. O., Sanakulov H. K. Directions for Developing Technical Thinking in Future Teachers //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 59-67.
2. Шаропов М. Н. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ К ТЕХНИЧЕСКОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ //Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 119-124.
3. Шаропов М. Н. ВЛИЯНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ //International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2025. – С. 296-302.
4. Ахмедова Х. Т., Шаропов Н. М. КРИТЕРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПОКАЗАТЕЛИ УСПЕШНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА //Вопросы педагогики. – 2020. – №. 1-2. – С. 22-24.